

## **APPENDITSIT KASALLIGI VA UNI DIAGNOSTIKA QILISH USULLARI**

*Sharipova Yulduz Baxtiyor qizi.  
Namangan viloyati, Chortoq tumani  
Chortoq Abu Ali ibn Sino nomidagi  
Jamoat salomatligi texnikumi  
Xirurgiya fani o'qituvchisi*

**Anotatsiya.** Aholi o'radsida ko'p uchrovchi Appenditsit kasalligini erta va samarali tashxislash va o'z vaqtida yordam ko'rsatish.

**Kalit so'zlar.** Appenditsit, tashxislash, simptomlar, dispepsiya, palpatsiya, operatsiya.

Xirurgik amaliyotda ko'p kuzatiladigan kasalliklardan biri bu Appenditsit ya'ni yo'g'on ichakning bir qismi bo'lgan chuvalchangsimon o'simtaning o'tkir yallig'lanishidir. Ko'p hollarda bemorlarning o'z vaqtida shifokorga murojat qilmasligi, yoki kech tashxislanishi sababli kasallik asoratlari og'ir kechishi mumkin. Shu bois kasallikni erta va to'g'ri tashxislash va xirurgik yordam ko'rsatish lozim. Kasallikni qanday tashxislash mumkin? Bemorlar asosan epigastral sohada yoki kindik yaqinidagi og'riqdan shikoyat qiladilar, bunday holatda bemorning qorin bo'shlig'ining qayerida og'riq his qilishiga, og'riq tabiatiga, og'riqning harakatlanishiga, og'riqning davomiyligiga e'tibor berish kerak. Dispepsiya, ko'ngil aynishi, 1-2 marotaba qayt qilish, najasning tabiatи o'zgarishi (suyuq najas) subfebril istima, erkaklarda sohta siyish istagining paydo bo'lishi, destruktiv o'tkir appenditsitda "O'tkir qorin"ning klassik simptomlari majmuasi rivojlanishini kuzatish mumkin. Bemor ko'zdan kechirilganda teri ranglari oqargan, ko'rinish turuvchi shilliq pardalarni(tilning quruqligi, karashlarning mavjudligi), pulsning tezlashuvi, A/B ning o'zgarishini baxolash kerak bo'ladi.

### ***O'tkir appenditsit belgilarini aniqlash.***

1.Koxer-Volkovich simptomi- og'riqning epigastral sohadan yoki qorinning yuqori qismidan o'ng yonbosh sohasiga siljishi.

2.Bartome-Mixelson- bemorning chap tomonidagi holatida o'ng yonbosh sohasini palpatsiya qilishda og'riq kuchayishi.

3.Rovzing simptomi-chap qovurg'a va qorin sohasi orasini chuqur bosishda o'ng qovurg'a va qorin sohasida og'riq bo'lishi.

4.Sitkovskiy simptomi-bemor chap tomonga burilganda o'ng tarafdagи og'riqning paydo bo'lishi yoki kuchayishi kuzatiladi.

5.Shyotkin-Blyumberg simptomi- qorinning o'ng yonbosh sohasini bosganda paydo bo'ladigan og'riq qo'lning keskin tortilishi bilan keskin kuchayishi kuzatiladi.

6.Bog'liq simptomlarning mavjudligi- ko'ngil aynishi, quşish, isitma, qisqa muddatli diareya, yolg'on ko'ngil aynishi.

***Yuqoridaagi holatlar kuzatilganda Tez yordam brigadasi yetib kelguncha qo'ng'iroq qiluvchiga maslaxatlar.***

- 1.Bemorga uchun uchun qulay vaziyatni egallashiga imkon bering.
- 2.Bemorga ovqat va ichimlik bermang.
- 3.Bemorga og'riq qoldiruvchi dori bermang.
- 4.Agar istimaga shubha bo'lsa, bemorning tana haroratini o'lchang.
- 5.Bemorni qarovsiz qoldirmang.

***Appenditsit kasalligida ko'rsatiladigan yordam.***

Appenditsit kasalligida bemorlarga ko'rsatiladigan asosiy yordam shoshilinch operativ yordam hisoblanib, bemorlarni zudlik bilan xirurgik statsionarga olib boriladi va shoshilinch operatsiyaga olinadi. Operatsiya nomi Appendoektoniya deb nomlananib umumiy yoki mahalliy anesteziya orqali bajariladi. Appendoektoniya operatsiyasi Dyakonov-Volkovich bo'yicha, Mak-Burney nuqtasi orqali kesib ochib bajariladi. Operatsiyadan keyingi davrda bemorlarga qatiy tartib asosida davolsh ishlari davom ettirib borilishi lozim. Davolovchi shifokor tomonidan bemorga kerakli davo choralarini va ovqatlanish tartibi belgilab beriladi.

Surunkali appenditsitda operatsiya rejali ravishda o'tkaziladi. Bunda og'riq hurujsimon bo'lib, klinik belgilar sust namoyon bo'ladi. Bemordagi klinik belgilar jadallahsgan vaqtida rejali operativ yordam ko'rsatiladi.

Bolalarda o'tkir appenditsit shiddatli, kattalardagiga qaraganda birmuncha og'ir o'tadi, aksariyat chuvalchangsimon o'simta perforetsiyasi(teshilishi) kuzatiladi. Yoshi ulug' insonlarda esa klinik belgilar atipik tarzda kichadi. Homilador ayollarda, ayniqsa, homiladorlikning ikkinchi yarmida og'riqlar birmuncha yuqori sohada seziladi, ko'ngil aynishi va quşish ko'proq sodir bo'ladi. Bolalar, homilador ayollar va keksalarda appenditsitning ilk alomatlari bo'lgandayloq operatsiya qilinishi lozim.

**ADABIYOTLAR:**

- 1.To'laganov D.B. "Tez tibbiy yordam hizmati birigadalari uchun milliy klinik bayonnomalar" Toshkent-2022.
- 2.Hamrayev A.J. "Xirurgiya va reanimatsiya asoslari" Toshkent "ILM ZIYO"-2017
- 3.Bekmuradova M.A. "Jarrohlik va reanimatsiya asoslari" Toshkent-2020
- 4.Shomirzayev N.H. "Operativ Jarrohlik" Toshkent "Ibn Sino"-1994.